

Bo‘Lajak Ingliz Tili O‘Qituvchilarining Kasbiy Kompetentligini Takomillashtirish Usullari

Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan bugungi kunda bo‘lajak ingliz tili mutaxassislarining kompetensiyalarini takomillashtirish, bo‘lajak mutaxassislarning bo‘lg‘usi faoliyatlarida kasbiy kompetensianing o‘rnini o‘rganish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, takomillashtirish usullari hamda ushbu jarayonda uchrayotgan muammolar borasida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, ta’lim, metodik kompetentlik, dars, innovatsiya.

Kirish.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotining barcha yo‘nalishlarida malakali mutaxassislarni tayyorlash davlat talabi darajasiga ko‘tarilgan. Hozirgi vaqtida ishlab chiqarishning har qanday sohasi uchun mutaxassis tayyorlash uning yuqori malakasini, harakatchanligini, uning shaxsini rivojlantirish uchun eng qulay shart - sharoitlarni ta’minlashi kerak. Bunda pedagogning kompetensiyasi tobora murakkablashib borayotganligi sababli muhim ahamiyat kasb etmoqda. Natijasi esa, ijtimoiy tajribaning kengayishi, axborotni taqdim etish va qayta ishslash hamda uni o‘quvchining ongiga muhrlashning xilma- xil ko‘rinishlarini paydo bo‘lishi, jamiyatda malakali mutaxassisiga bo_igan ehtiyojni yanada ortishi bilan izohlanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarining kompetensiyani rivojlantirish- pedagogik muammo sifatida ekanligini tahlil qilar ekanmiz, O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy- axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlovchi, yuksak malaka tajribasiga ega kadrlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko_tarish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28- yanvardagi PF - 60-sod Farmoni asosida —2022- 2030- yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni qabul qilinganligi ayni mazkur muammolarni bartaraf etishga qaratilganligini e’tirof etish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Oliy ta’lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyasini rivojlantirish borasidagi muammolar bugungi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Shuning uchun, Ta_lim to‘g‘risidagi qonunda mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimi aks ettirilgan.

A.R.Xodjaboyevning fikricha, kompetent nuqtayi nazaridan yondashilsa, ta’limning yangi sifatiga erishish usuli hisoblanadi. Ya’ni insonning ma’rifatligini o‘lchashning yangi birligi haqida gap ketmoqda, chunki bugungi kunda bilim, ko‘nikma va malakalar ta’lim sifati darajasini to‘liq o‘lchash, uni aniqlash imkonini bermaydi.

M. Gulyamova tadqiqotida bugungi kunda barcha fanlarni o‘qitish jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv keng tadbiq etilishini, shuningdek, endilikda o‘quvchi-talabalarga fan bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalar berishning o‘zi etarlicha emasligi, olingan bilimlardan turli vaziyatlarda amaliy qo‘llash malakasini shakllantirib borish kerakligini aytib o‘tgan. Darhaqiqat, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarни o‘zining shaxsiy, kasbiy, ijtimoiy faoliyatida amaliy qo‘llay olish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ta’lim bo‘lib,

¹ 1-kurs tayanch doktarantura talabasi Ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasи Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti



buning yordamida o‘quvchilarni mustaqil fikrlay olish qobiliyatini rivojlantirish, jamiyatda har tomonlama faol fuqarolarni shakllantirish, axborot texnologiyalaridan erkin foydalana olish huquqi, ongli ravishda kasb yokida hunar tanlashlari, ko‘nikma hosil qilishlarini nazarda tutadi[6].

T.V.Shtikova — kommunikativ kompetentlikning bazaviy asosiy tushunchasini kasbiy ahamiyatli kommunikativ-shaxsiy, didaktik va gnostik bilimlar, ko‘nikma va tarkibida, shuningdek, pedagogning kasbiy sifatlari mavjud bo‘lgan va uning kommunikativ faoliyatning samaradorligini ta’minlaydigan kommunikativ faoliyat tajribasining integrativ yaxlitligi sifatida qaraydi. Bunda bo‘lajak o‘qituvchidan so‘zamol ya’ni gapga usta, puxta bilimlar egasi bo‘lishligi talab etiladi.

A.G. Bermusning fikriga ko‘ra, — Kompetentlik takomillashib borayotgan shaxsning barcha xislatlarini, bilimi, tajribasi, umuman olganda, butun borlig‘ini yagona tizimga birlashtiradi.

A.Navoiy: — O‘qituvchini faqat dars beruvchi, bilim beruvchi deb bilmaydi, balki, mahoratli tarbiyachi bo‘lishi lozim deb ilm - odobni birga olib borilishini, bu ikki jarayon hech qachon har qanday vaziyatda ham ajralmasligini ta’kidlab o‘tgan.

Kompetensiya o‘qituvchi faoliyati uchun zarur. Agar u yaxshi mutaxassis bo‘lsa-yu lekin olgan bilimlarini pedagogik faoliyatida qo‘llay olmasa, bunday pedagog yaroqsiz hisoblanadi, ya’ni tajribasiz.

Kompetensiyani rivojlantirish uchun esa bo‘lajak oqituvchilardan tinimsiz mehnat, uzluksiz ta’lim olish, uni pedagogik faoliyatda, ayniqsa, dars jayonida talabalar ongiga singdirish talab qilinadi.

G.M.Karlibayevaning tadqiqot ishida bo‘lajak o‘qituvchilarda metodik tayyorgarlikni rivojlantirishning nazariy asoslari aniqlangan, bunda o‘qituvchining metodik tayyorgarligini shakllantirishning uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan, mazkur jarayonni tashkil etish va samadorlikka erishishning metodik yo‘llari belgilangan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur ilmiy maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilarning kompetensiyasini takomillashtirishning mazmun- mohiyati, maqsad va vazifalari o‘rganildi. Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida bo‘lajak mutaxassislarning kompetensiyasini rivojlantirishga oid adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar pedagog, sotsiolog, psixolog olimlarning ushbu mavzuda olib borgan izlanishlari, olimlar va shu soha vakillarining yozma va og‘zaki fikr- mulohazalarini tahlil qilish jarayonlarini kuzatish amalga oshirildi. Zamонави о‘qituvchi timsolida komillik mujassamlashishi muhim rol o‘ynaydi. Bugungi kun o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish –bu uning kunlik layoqatini, ish jarayoni unumдорлигini oshirishdan iborat. Ish faoliyatida kasbiy mahoratni shakllantirish bilan bog‘liq muammolarni o‘рганиш va uni hal etish, kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish orqali malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning pedagogik-psixologik bilim, ko‘nikmalarini oshirish zaruriyati ta’lim muassasasiga va o‘qituvchilarga qo‘yilgan ijtimoiy talablarning o‘sishi bilan asoslanadi. Oliy ta’lim sohasida ularning kasbiy tayyorgarlik darajasini belgilash, undagi talablarga javob beradigan jihatlarni hamda mavjud kamchiliklarni va bo‘shliqlarni aniqlash asosida ta’lim berishga bo‘lgan haqiqiy ehtiyojlarni belgilash amalga oshiriladi. Shu asosida innovatsiyalarni hayotga joriy etish maqsadga muvofiqdir. Bu esa pedagogik kompetensiyani rivojlantirishga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Uchinchi ming yillikning oxirida dunyoqarashning o‘zgarishi aloqa va axborot sohasidagi inqilob bilan yuzaga keldi. Ommaviy kompetensiyalashtirish, eng yangi axborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish, ta’lim, biznes va ijtimoiy hayot sohalari uchun sezilarli o‘zgarishlarni olib keldi. Ishlab chiqarish sohasidagi o‘zgarishlar esa, dasturiy ta’minotni tuzdi hamda bu yo‘l bilan joriy etilgan axborotni yanada takomillashtirish, to‘plash va uzatish jarayonini tezlashtirdi, shuning bilann birgalikda axborotdan foydalanan imkoniyatlari osonlashdi. Bugungi kunda “professional kompetensiya” atamasi tez-tez ishlatiladi. Tushuntirish lug‘atlarida kompetensiya tushuncha va bilim sifatida ta’riflanadi. Lotin tilidan tarjima qilinganda “competentia” inson bilimli, bilim va tajribaga ega bo‘lgan bir qator masalalarni bildiradi. Lotin: competo – erishaman, bo‘ysunaman, yondashaman. Bir so‘z bilan aytganda, kasbiy kompetensiya bilim, ko‘nikma va malakalarni amaliyatga aylantirish qobiliyatidir.



Kasbiy kompetensiyalar - bu kasbiy vazifalarni yoki muayyan kasbiy vazifani bajarish qobiliyati. Siz ishni samarali bajarishingiz va kerakli natijaga erisha olasiz deb taxmin qilinadi. Shuningdek, quyidagi kompetentsiya turlari ajratiladi: - individual kompitensiya: o‘zingizni targ‘ib qilish va natijalarga erishishga yordam beradigan shaxsiy xususiyatlar. - yetakchilik qobiliyatları: boshqaruv emas, balki yetakchilik. Chunki hamma rahbarlar ham rahbar bo‘la olmaganidek, hamma ham rahbar bo‘la olmaydi. Bu ko‘proq insонning shaxs va mutaxassisning rivojlanishi uchun qanchalik yetakchilik qilishi yoki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi mumkinligi anglatadi. - funktsional kompetensiyalar. Faqat inson faoliyati sohasini nazarda tutadi. - ijtimoiy kompetensiya: ijtimoiy guruh ichidagi kognitiv va xulqatvor qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. - hissiy kompetensiya: hissiy intellekt javobgar bo‘lgan kuchli va zaif tomonlaringizni tahlil qilish qobiliyati.

Kasbiy kompetensiya va kasbiy o‘zlikni anglash butun umr davom etadigan jarayon bo‘lib, inson orzu qilish, sinash, tanlash hamda ularni amalga oshirish bosqichlaridanoq kasb-hunar tanlaydi, so‘ngra kasb-hunarga kirishadi keyinchalik dunyodagi kasb-hunarlarni o‘zgarishiga, o‘zidagi o‘zgarishga, mehnatga bo‘lgan munosabatini o‘zgarishiga bog‘lik ravishda kasbini yoki mutaxassisligini o‘zgartiradi. Kasbiy kompetentsiya deganda yana murakkab integral ta’lim, shu jumladan kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan bilimlar to‘plami tushuniladi. Ko‘nikma va qobiliyatlar, shaxsiy fazilatlar, fikrlashning muayyan usullari va o‘z harakatlari uchun muayyan darajada javobgarlik tushuniladi.

“Kompetentlik” tushunchasi hozirgi kun pedagogini tarbiyalashda eng muhim omil hisoblanadi. Ushbu termin lotincha “Competo” (erishiyapman, munosibman, loyiqliman) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajriba degan ma’nolarni anglatadi. Kompetentlilik – bilimdonlik, kasbiga moslik, malakalilik, tajribalilik, mas’uliyatlilik kabi boshqa xislat va fazilatlar tushuniladi. Kompetent yondashuv tinglovchidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyatda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

Kompetent yondashuv oliy ta’limni modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yangi pedagogik voqelik hisoblanadi. Mazkur yondashuv doirasida amaliy faoliyat tajribasi, kompetensiya va kompetentlikni didaktik birliklar sifatida ko‘rib chiqish hamda ta’limning an’anaviy uch elementi (triada) - ‘bilim - ko‘nikma - malaka’ni oltita birlik (sekstet) - “bilim - ko‘nikma - malaka - amaliy faoliyat tajribasi - kompetensiya - kompetentlik” tarzida tahlil qilish talab etiladi. Dastlab “kompetensiya” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirib olish zarur.

Kompetensiya- (lotincha so‘z bo‘lib, erishaman, to‘g‘ri kelaman ma’nolarini bildiradi) - sub’yektning maqsadni qo‘yish hamda unga erishish uchun tashqi va ichki zaxiralarni samarali amalga oshirishga tayyorgarligi, boshqacha qilib aytganda, bu subyektning muayyan faoliyat obyekti bilan bog‘liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etishga doir shaxsiy qobiliyatidir. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, “kompetensiya” tushunchasiga berilgan aksariyat ta’riflar kasbiy ta’lim, kasbiy faoliyat bilan bog‘liqlikda bayon etilgan. Biroq umumiy o‘rtta ta’lim bilan bog‘liqlikda mazkur tushuncha innovatsiya tavsifiga ega bo‘lganligi sababli, uning mohiyatini aniqlashtirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Kasbiy kompetentlik - mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishidir . L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan. U pedagogik kompetentlik tuzilmasida quyidagi uchta tashkil etuvchini ajratgan: faoliyatli, kommunikativ va shaxsiy.

L.M.Mitina tomonidan taklif etilgan pedagogik kompetentlikni tuzilmalashtirishdan kelib chiqqan holda, biz, bo‘lajak mutaxassislar uchun egallanish darajasi pedagogik kompetentlikning rivojlanish darajasini aniqlaydigan quyidagi kompetensiyalar majmuasi yetarli va zarur deb hisoblaymiz: - faoliyatli yoki maxsus kompetensiya (bilim, ko‘nikma, malaka va pedagogik faoliyatni amalga oshirishning individual usullari); - shaxsiy yoki kasbiy kompetensiya (kasbiy o‘z-o‘zini



takomillashtirish va o'zo'zini amalgा oshirishga oid bilim, ko'nikma va malakalar); - kommunikativ kompetensiya (pedagogik faoliyatni ijodiy amalgा oshirishga oid bilim, ko'nikma va malaka) Professionallik va kompetentlik tushunchalari umumiy xususiyatlarga ega. Shuni ta'kidlash kerakki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to'liq mos keladigan odamlar chinakam professionallar bo'lavermaydi, sabab, ba'zilari bilimlarni amalda qanday qo'llashni bilishmaydi, demak, bunday pedagogik faoliyat samarasiz bo'lib qolaveradi.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir: - maxsus pedagogik kompetensiya; - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalgा oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq; - ijtimoiy pedagogik kompetensiya; - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalar, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik; - bularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan; - shaxsiy pedagogik kompetensiya; - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtini boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishslashga qodir.

Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida shuni aytishimiz kerak-ki, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning turli xil metod, usullari bilan tanishtirish, ularning kasbiy kompetentligini yanada rivojlantirish, kasbiy rivojlanish sirlari bilan qurollantirish hamda pedagogik inovatsiyalar bilan ishslash metodikasini shakllantirish ta'lim samaradorligini oshiruvchi muhim omillardan biridir. Pedagogik jarayonlarning samaradorligini ta'minlash uchun bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik jarayonlarni strategik rejalashtirish, loyihalashtirish, modellashtirish, o'quvchilar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning faolligini ta'minlash, vaziyatlarga ko'ra pedagogik jarayonni boshqarish usullari, metodlari hamda tamoyillari, innovations texnologiyalarni biliishi va ular asosida pedagogik jarayon sub'ektlarining innovations faoliyatini tashkil etish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurdir.

Bugungi kunda, bo'lajak o'qituvchilarni metodik kompetentligini rivojlantirish asosiy masalalardan biri hisoblanadi, bu borada quydagi yo'nalishlar bo'yicha tizimli faoliyat amalgा oshirilishi zarur: Birinchidan, bugungi kunda amalgा oshirilayotgan ta'limiy o'zgarishlar bo'lajak mutaxassislarning ongliligini va faolligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Ikkinchidan, bugungi kunda raqamli iqtisodiyot davrida, bo'lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish zamon talablarini asosida shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini amalgा oshirish. Uchinchidan, kompetensiya, ayniqsa, har bir soha vakillarida kasbiy kompetensiya bo'lajak mutaxassislarning jamiyatda tutgan o'rnni belgilar ekan, jamiyat ham yuqori malakali kompetensiyaga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashdan manfaatdor bo'lishini ularga anglab yetishlariga erishish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining — Ta'lim to'g'risidagi Qonuni- T.:2020-yil. 23-sentabr//O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
2. Mirziyoyev Sh... —2022- 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot straregiyasi to'g'risidagi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh... O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni.
4. Zununov.A. "Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik". Sharq nashriyoti.-T.:2004-yil.148-b
5. Muslimov N.A va boshqalar. "Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari". O'quv- metodik qo'llanma.-T.: Sano- standart, 2015-yil.120-b



6. Gulyamova M.X. “Ingliz tilini o‘qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv”//: Avtoref.dis. ... (PhD) ped nauk / Gulyamova M.X.-T.:2019- yil. 45-b.
7. G.M.Musaxanova. “Oliy ta‘lim tizimida bo‘lajak mutaxassislarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish”. Ilmiy maqola. 2023-yil.
8. Grevtseva, G. Ya., Olimov, Sh. Sh., Abdullayev, K. F & Samiyeva, Sh. H “ОБЩАЯ ПЕДАГОГИКА”. – Т: 2005 - yil
9. Самиева Ш. Х., Усмонова Г. Х. “Научные направления развития творческих и интеллектуальных способностей молодежи” //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 35-38.
10. Sadirovich, S. N. (2022). “The Significance of Problem Situation Assignments in Teaching the Science of Machine Details”. Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science, 3(8), 30-32.

